

ISPRING VA HOT POTATOES DASTURLARINING IMKONIYATLARI.

SADINOV OTABEK BAXODIROVICH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI ANIQ FANLAR
FAKULTETI TALABASI.



Annotatsiya. Ushbu maqolada multimedia tushunchasi qo'llanish sohasidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish usullariga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: multimedia, axborot, texnologiya, internet, virtual.

Ispring dasturi. - Multimediali elektron o'quv kurslarni yaratishda keng ishlatalib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri **Ispring** dasturi hisoblanadi.

ISpring dasturining quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;
- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko'ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo'yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;
- video qo'shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan (Quiz tugmachasi);
- masofaviy o'qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;
- taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;
- videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;



- YouTubega joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.

Elektron axborot ta'lim resurslari ichida kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMakerdasturini keltirish mumkin.

ISpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- tarmoqlangan testlar yaratish;

- ikki, uch, to'rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari;

- bir necha to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari, ochiq test topshiriqlari;

- o'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar;

- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyatilari mavjud.

iSpring Free dasturi .PPT, .PPTX, .PPS, .PPSX formatdagi fayllarni Flash (.SWF) va HTML5 formatiga konvertatsiyalash imkoniyatini beradigan mualliflik dasturi hisoblanadi.

Dastur orqali foydalanuvchilar Flash-roliklar va YouTube-video resurslarni PowerPoint taqdimot slaydlariga joylashtirishlari mumkin.

Xususan:

- Yaratiladigan elektron o'quv kontentlarni SCORM va TinCan tizimlarga o'tkazish imkoniyatini beradi, bu esa ixtiyoriy LMS (Learning menegment system) bilan integratsiyalashtirish mumkin degani;

- PowerPoint dasturida yaratilgan taqdimot faylining xajmini 97% gacha siqish imkoniyati mavjud;

- PowerPoint dasturida yaratilgan taqdimot faylining himoyalanishini ta'minlaydi;

iSpring Free dasturi mutloq tekin hisoblanadi.





iSpring Free dasturidan tashqari imkoniyati ko‘proq bo‘lgan iSpring Suite dasturi ham mavjud bo‘lib, bu dastur orqali yuqori darajada sifatli elektron o‘quv kontentni yaratish mumkin.

iSpring Suite asbob uskunalarini orqali (QuizMaker, iSpring Visuals, iSpring DialogTrainer) elektron darsliklar, videoma’ruzalar, QuizMaker orqali elektron nazorat testlari, so‘rovnomalar, iSpring DialogTrainer -tarmoqlangan dialogli elektron kurslarni va onlayn-perezentatsiyalarni yaratish mumkin.

Yaratilayotgan elektron kursga audio va video fayllarni qo‘shish, audio va videolarni yozish, taqdimot slaydlari bilan sinxronizatsiyalash, elektron kursning har xil pleyerlarini tanlash, tahrirlash, SCORM va TinCan standartlarida chop etish, .mp4 videoformatida eksport qilish imkoniyatlarini beradi.

Shu bilan bir qatorda iSpring Visuals orqali 3D kitoblar, vaqt shkalasi, glossariylar yaratish imkoniyati ham mavjud. iSpring dasturi orqali yaratilgan kurslarni LMS lar bilan integratsiyalash imkoniyati mavjud.

Hot Potatoes dasturi.

Hot Potatoes – instrumental qobiq dastur bo‘lib, o‘qituvchilar tomonidan mustaqil interaktiv topshiriqlar tayyorlash uchun mo‘ljallangan. Bu dastur bilan ishlash davomida foydalanuvchidan dasturlash tilini bilish talab etilmaydi.

Dastur yordamida 10 turdag'i turli tilda matnli, grafikli va audio-video li topshiriqlar tayyorash mumkin.

Dasturning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, yaratilgan topshiriqlar standart veb-sahifa ko‘rinishida saqlanadi. Buning uchun talabalarga **Hot Potatoes** dasturi kerak emas. Ular uchun faqat veb-brauzer (masalan, Internet Explorer) bo‘lishi yetarli. Bu dastur faqat o‘qituvchilarga topshiriqlarini yaratish va taxrirlash uchun kerak bo‘ladi. Bu dastur dunyo bo‘ylab keng foydalanib kelinmoqda. Bu dastur 1997-2003 yillarda Kanadaning Viktoriya universitetining Informatsion texnologiyalar markazida yaratilgan. (<http://web.uvic.ca/hcmc>).



Mualliflar: Stewart Arneil, Martin Holmes, Hilary Street

Dasturning asosiy bloklari

Topshiriqlar dasturning quyidagi 6 ta bloki yordamida yaratiladi (har bir blok mustaqil dastur sifatida qaraladi):

1. **JMix** – ketma-ketlikni to‘g‘ri tiklash.
2. **JQuiz** – Viktorina – savolning javoblari ko‘p tanlovli.
3. **JCloze** – tushirib qoldirilgan so‘zni to‘ldirish.
4. **JCross** – Krossvord.
5. **JMatch** – Moslikni o‘rnatish.
6. **JMasher** – Barcha bo‘limlarda yaratilgan test, krossvordlarni bir butun veb-saxifaga jamlaydi.

Topshiriqlarning bajarilish natijasi foizlarda baholanadi. Noto‘g‘ri urinishlar baho natijalar foizi pasayadi. Dasturning 6-versiyasida **JMasher** qo‘sishimcha blogi qo‘shilgan bo‘lib, dasturning boshqa bloklarida yaratilgan topshiriqlarni umumiylashtirish vazifasini bajaradi.

Dasturni o‘rnatish

Dasturni <http://web.uvic.ca/hrd/hotpot> sahifasidan yuklab olish mumkin.






Dasturni o'rnatish uchun setup faylini ishga tushirish kerak. Dastur o'rnatilgandan keyin barcha fayllar dasturning papkasiga nusxalanadi.


Yuqoridagi keltirilgan har bir bloklarni misollar bilan ko'rib chiqmiz.

1. JQuiz – turli xil testlar yaratishga mo'ljalangan. Uni ishga tushirganimizda quyidagi oyna hosil bo'ladi:



Bu darcha файл, редактируют, вставить, управление, вопросы, выбор и помощь меню, усунуть вопрос и исполнитель maydonidan tashkil topgan.

Ishchi maydondagi Имя satriga fan nomi, keyingi satrga savollar yoziladi. Ответы ustuniga javoblar, Комментарии ustuniga izoxlar yoziladi, Настройки ustuniga верно katakchalariga to'g'ri javob uchun belgi qo'yiladi. Masalan:






Ikkinci va keyingi savollarga **B** bandidan surgich yordamida 2-3- va keyingi savolarni qo'shamiz.


Dasturning **Выбор** menyusining **Вид вэбстраницы** bandi yoki darchaning



piktogrammasi orqali biz vefsahifa qilib saqlayotgan faylimizning sozlash parametrlarini hosil qilamiz.



Вид вэбстраницы bo'limi ishga tushgandan keyin quyidagi oyna hosil bo'ladi:







Bu darchadagi bandlar orqali biz testimizning ko'rsatilgan parametrlarini sozlaymiz. Hosil qilingan faylimizni saqlash uchun fayl menyusining **Сохранить, Сохранить как** kabi bandlaridan foydalanamiz. Faylimizni vebsahifa ko'rinishida saqlash uchun esa uskunalar panelidagi piktogrammasidan foydalanamiz.



Masalan:



Просмотр задания в моем браузере tugmasini bosib tayyor bo'lgan tesni brauzerda ko'rishimiz mumkin.





The screenshot shows a Microsoft Internet Explorer window with the title "Dasturlash tillari fanidan test savollari". Below it is a sub-section titled "Quiz". A question is displayed: "C++ tilida foydalilaniladigan takroflanish operatorini toping". Four options are listed: A. ? for, B. ? if, C. ? goto, D. ? else. At the bottom of the window, there are navigation buttons: "Index" and "=>". The status bar at the bottom of the browser window shows "Готово" (Ready), "Компьютер | Защищенный режим выкл.", and "100%".

2. JMIX dasturida yaratiladigan testlar ma'lum bir ketma-ketlikni to'g'ri joylashtirish orqali bajariladi. Bu yerda chap maydon (Основное предложение) ga so'zlar ketma-ketligi navbatma-navbat, o'sib borish yoki kamayib borish tartibida kiritiladi.

The screenshot shows the JMIX application window titled "JMIX: [Без названия]". The menu bar includes "Файл", "Редактировать", "Вставить", "Выбор", and "Помощь". The toolbar contains various icons for file operations. The main interface has two main sections: "Основное предложение" (Main Sentence) and "Альтернативные" (Alternatives). In the "Основное предложение" section, the text "Kompyuter ikkilik sanoq sistemasida ishlaydi" is listed. In the "Альтернативные" section, three numbered boxes (1, 2, 3) are provided for alternative answers. Below these sections is a configuration panel titled "Настройки альтернативного предложения" (Settings for alternative sentence) with two radio button options: "Принимать за правильный ответ неполные предложения (нет отдельных слов и зна)" (Accept incomplete sentences as correct answers (no separate words and signs)) and "Предупреждать, если альтернативные варианты используют не все слова и пункту" (Warn if alternative variants use not all words and punctuation). The bottom of the window shows the configuration file "Конфигурация: english6.cfg".

Bu dasturda ham yaratilgan loyihani ham ikki xil ko'rinishdagi test hosil qilishimiz mumkin. F6 tugmasi orqali hosil qilingan test quyidagicha bo'ladi:





Put the parts in order to form a sentence. When you think your answer is correct, click on "Check" to check your answer. If you get stuck, click on "Hint" to find out the next correct part.

Check Undo Restart Hint

ikkilik Kompyuter sanoq sistemasida ishlaydi

Bu yerda pastdagи so'zlar ustiga ketma-ketlikda sichqoncha chap tugmachasi bosiladi, qaysi so'zni tanlasak o'sha so'z tepada ketma-ketlikda hosil bo'ladi.

Ikkinci ko'rinishda esa so'zlarni sichqoncha "**Drag&Drop**" usulida ketma-ketlikda joylashtiriladi, tartiblanadi.

Put the parts in order to form a sentence. When you think your answer is correct, click on "Check" to check your answer. If you get stuck, click on "Hint" to find out the next correct part.

Check Restart Hint

Kompyuter

sistemasida sanoq ishlaydi ikkilik




Bu yerdagи inglizcha so'zlarni tarjima qilish yoki o'rniga boshqa so'zlar yozish uchun **Выбор** menyusidan **Вид вэбстраницы** bo'limidan o'zgartirish mumkin.

3. JClose – matndagi tushirib qoldirilgan so'zlarni to'ldirish imkonini beradi.

Hot Potatoes dasturini ishgа tushiramiz, hosil bo'lgan oynadan "**JCloze**" ni tanlaymiz yoki men "**Potatoes**" menyusidan ham "**JCloze**" tanlashimiz mumkin.


Natijada quyidagi oyna paydo bo'ladi:




"Имя" satriga yaratmoqchi bo'lgan topshiriqning nomini kiritamiz: (M: Matnda tushirib qoldirilgan so'zlarni toping.). Uning pastidagi bo'sh maydonga esa biror matnni yozamiz. Masalan, " Axborotning eng kichik o'lchov birligi bu bit" So'ngra "bit" so'zini belgilab, pastroqda joylashgan "Пробел" tugmasini bosamiz va natijada quyidagi oyna hosil bo'ladi.



Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari



So'ngra biz unga "определение" bandi orqali ta'riflasak ham bo'ladi yani o'quvchiga ko'maklashish maqasadida yoki bo'sh qoldirsak ham kamchilik hisoblanmaydi. Yana qo'shimcha ravishda alternativ javoblar ham qo'shishimiz mumkin va "OK" tugmasini bosamiz. So'ngra ekranda quyidaicha oyna hosil bo'ladi




Endi natijani brauzerda hosil qilishimiz uchun yaratgan topshirig'imizning sozlamalarini ko'rib chiqamiz.


Belgilangan tugmalarni bosganimizdan so'ng quyidagi oynalar paydo bo'ladi:



**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



Sozlamalarni bajarib bo'lgandan so'ng quyidagi amallarni bajaramiz



Topshiriqqa nom beramiz, saqlaymiz.

Agar topshiriqlarni to'g'ri bajarga bo'lsangiz natija quyidagicha bo'lishi kerak.

Matnda tushirib qoldirilgan so'zlarni toping.

Gap-fill exercise


Fill in all the gaps, then press "Check" to check your answers. Use the "Hint" button to get a free letter if an answer is giving you trouble. You can also click on the "[?]" button to get a clue. Note that you will lose points if you ask for hints or clues!

Axborotning eng kichik o'lchov birligi bu [] . 8 bit 1 [] ni tashkil qiladi. Kompyuter xotirasidan 1 ta belgi 1 [] joy egallaydi. Kompyuter [] ustida amallar bajaradi.


Check Hint

4. JCross – Turli krosvordlar tuzish uchun mo'ljallangan.


Uni ishga tushirganimizdan keyin quyidagi darcha hosil bo'ladi:




Krosvord yaratishning ikki usuli mavjud odatiy va avtomatik. Biz avtomatik tarzda krosvord yaratishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun “Автоматическая сетка” buyrug'idan foydalanamiz.



Darchaning cursor turgan joyiga krosvordimizning kalit so'zlarini yozamiz:




Yozib bo'lgach **Создать сетку** tugmasini bosamiz, natijada kalit so'zlardan tashkil topgan krosvord hosil bo'ladi:





Kalit so'zlarning izohlarini **Определенея** bandi orqali kiritamiz. F6 tugmasini bosib krosvordni brauzerda ko'rshimiz mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. iSpring Solutions Inc. (2024). *iSpring Suite User Guide*. <https://www.ispringsolutions.com>
2. Arzumanova, L. G. (2019). *Metodika ispol'zovaniya kompyuternykh texnologiy v obrazovanii: primer platformy iSpring*. // Innovatsionnye tekhnologii v obrazovanii, №2.
3. Karimov, B. S. (2022). *Elektron o'quv kurslarini yaratishda iSpring texnologiyalarining o'rni*. // O'zbekistonda pedagogik innovatsiyalar, №3.
4. G'ulomov, K., & Arzikulov, H. (2021). Kompyuter grafikasi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish vositasi sifatida. Amerika ijtimoiy fanlar va ta'lim innovatsiyalari jurnali , 3 (06), 104-108. <https://doi.org/10.37547/tajsei/Volume03Issue06-17>
5. Arzikulov Husan. "The use of interdisciplinary integration in the development of graphic competence of future teachers of mathematics and informatics." *International conference on multidisciplinary science*. Vol. 1. No. 4. 2023.